

BEMORLARDA IJTIMOIIY MOSLASHUVCHANLIK MUAMMOSINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Yusuffjonova Fazilatxon Baxtiyor qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

1-kurs "Ijtimoiy psixologiya" yo'nalish magistranti

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy tezis bemorlarda ijtimoiy moslashuvchanlik muammosining psixologik aspektlarini tarixiy nazariyalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar nuqtai nazaridan o'rganadi. Ijtimoiy moslashuvchanlik tushunchasi dastlab shaxs va uning ijtimoiy muhitining o'zaro ta'siri doirasida shakllangan bo'lib, bu fikrlar Uilyam Jeyms va Z.Freydning asarlarida o'z ifodasini topadi. Keyingi davrda A. Adler va E. Erikson ijtimoiy moslashuvni shaxsning ijtimoiy identiteti va o'zini jamiyatdagi o'rni bilan bog'lab tahlil qilgan. XX asr oxiri va XXI asr boshida esa A. Bandura, U. Bronfenbrenner va A. Bek ijtimoiy moslashuvni kognitiv, ijtimoiy va ekologik tizimlar nuqtai nazaridan talqin qilgan. O'zbekistonlik olimlar, jumladan E. G'ozdiyev, V. Karimova, G'. Ikmatullayev va X. Ibragimova ijtimoiy moslashuvni milliy ijtimoiy-madaniy kontekstda, xususan bemorlar psixologiyasi nuqtai nazaridan o'rganib, moslashuv jarayonining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlagan.*

Kalit so'zlar: psixologik, Z. Freyd, Uilyam Jeyms, ijtimoiy moslashuv.

KIRISH

Ijtimoiy moslashuvchanlik, ya'ni shaxsning jamiyat normalari, qadriyatlari va rollariga moslashish qobiliyati, psixologiya fanining markaziy tushunchalaridan biridir.¹⁾ Kasallik holati esa insonning faqat biologik holatini emas, balki uning psixologik va ijtimoiy funksiyalarini ham tubdan o'zgartiradi.²⁾ Shu bois bemorlarda ijtimoiy moslashuvchanlik muammosi nafaqat klinik psixologiya, balki ijtimoiy psixologiya doirasida ham dolzarb tadqiqot obyekti hisoblanadi.³⁾

Ijtimoiy moslashuv tushunchasi psixologik fan rivojida asosan shaxs va muhit o'rtasidagi muvozanat nuqtai nazaridan o'rganilgan. Uilyam Jeyms bu jarayonni

shaxsning muhit bilan uzviy moslashuvi, ya'ni psixik barqarorlikni saqlash mexanizmi sifatida tushuntiradi⁵. Z.Freyd esa moslashuvni shaxsning ichki ehtiyojlari va tashqi ijtimoiy cheklovlar o'rtasidagi muvozanat orqali izohlaydi⁶. Adlarning individual psixologiya maktabida ijtimoiy moslashuv shaxsning jamiyatga foydali bo'lish istagi va "ijtimoiy manfaatdorlik" darajasi bilan belgilanadi⁷. Kasallik davrida esa kamlik hissi kuchayishi, shaxsning ijtimoiy faoliyatdan chekinishiga sabab bo'lishi mumkin⁸. Erikson esa ijtimoiy moslashuvni psixososial rivojlanish bosqichlari bilan bog'lab, har bir bosqichdagi muammolar kasallik sharoitida shaxs identitetining buzilishiga olib kelishini ta'kidlaydi⁹.

XX asr oxirida ijtimoiy moslashuv kontsepsiyasi kognitiv va ekologik tizimlar orqali izohlana boshladi. Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasida shaxsning moslashuvi ijtimoiy tajriba, modellashtirish va o'zini boshqarish mexanizmlari orqali yuzaga kelishini qayd etadi¹⁰. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar yondashuvida esa shaxsning moslashuvi mikro (oil), mezo (mahalla, ish joyi), ekzo (sog'liqni saqlash tizimi) va makro (madaniyat, ijtimoiy normativlar) tizimlar o'zaro ta'siri orqali aniqlanadi¹¹.

Kognitiv terapiya asoschisi A. Bek ijtimoiy moslashuvning pasayishini shaxsning salbiy avtomatik fikrlari va noto'g'ri kognitiv sxemalari bilan izohlaydi¹². Bu nazariya bemorlarda kasallik bilan bog'liq bo'lgan "o'zimni jamiyatga foydasiz deb his qilish" kabi fikrlarning paydo bo'lishi va natijada ijtimoiy faollikning susayishini tushuntiradi¹³. Kasallik sharoitida ijtimoiy moslashuvchanlikning pasayishi ko'pincha bir nechta psixologik omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, kasallik surunkali stressni keltirib chiqaradi va shaxsning moslashuv resurslarini kamaytiradi.⁴⁾ Selye stress nazariyasida stress organizming moslashuv imkoniyatlarini cheklab, emotsional va ijtimoiy faoliyatni susaytirishi ta'kidlanadi¹⁴. Ikkinchidan, o'z-o'zini baholashning pasayishi bemorning ijtimoiy rollarini bajarishiga to'sqinlik qiladi; bu holat ijtimoiy psixologiyada "shaxsning o'zini qadrsiz his qilishi" deb tushuntiriladi⁵⁾. Uchinchi omil — ijtimoiy stigmatizatsiya. Goffman stigmani shaxsning jamiyatdagi "ixtiyoriy emas"

belgilari orqali boshqalardan ajralib qolishi deb ta'riflaydi, bu esa bemorning ijtimoiy muhitga qaytishini qiyinlashtiradi¹⁶. Shuningdek, bemor o'zining avvalgi ijtimoiy rolini yo'qotgandek his qilishi identitet inqiroziga olib keladi. Eriksonning fikricha, identitetning zaiflashuvi shaxsning ijtimoiy moslashuvini zaiflashtiradi¹⁷.

O'zbekistonda ijtimoiy moslashuv va adaptatsiya masalalari psixologiya fanida izchil o'rganilmoqda. E.G'oziyev shaxsning ijtimoiy moslashuvini ijtimoiylashuv jarayonining muhim ko'rsatkichi sifatida ko'radi va shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirini tahlil qiladi¹⁸. V.Karimova esa ijtimoiy moslashuvni shaxslararo munosabatlar tizimi bilan bog'lab, moslashuv jarayonida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ta'kidlaydi¹⁹. G'.Ikmatullayev bemorlar psixologiyasida ijtimoiy moslashuv muammosini ijtimoiy-psixologik mexanizmlar orqali o'rganib, kasallik sharoitida shaxsning ijtimoiy funksiyalarining qanday o'zgarishini ko'rsatadi²⁰. X.Ibragimova esa adaptatsiyani shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi uzviy aloqalar tizimi sifatida tushuntirib, moslashuvni kuchaytirish yo'llarini ilmiy asoslaydi²¹.

XULOSA

Tezisdagi bemorlarda ijtimoiy moslashuvchanlik muammosi ko'p qirrali psixologik jarayon sifatida tasvirlandi. Tarixiy nazariyalar (Jeyms, Freyd, Adler, Erikson) ijtimoiy moslashuvni shaxs va muhit o'rtasidagi muvozanat va identitet jarayoni sifatida tushuntirsa, zamonaviy yondashuvlar (Bandura, Bronfenbrenner, Bek) uni kognitiv va ekologik tizimlar orqali tahlil qiladi. O'zbekistonlik olimlar esa bu jarayonni milliy kontekstda, xususan bemor psixologiyasi nuqtai nazaridan o'rganib, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va psixologik rehabilitatsiyaning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Shuning uchun bemorlarda ijtimoiy moslashuvchanlikni oshirish kompleks yondashuvni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. James, W. (1890). **The Principles of Psychology**. New York: Holt.
2. Freud, S. (1923). **The Ego and the Id**. London: Hogarth Press.
3. G'oziyev, E. (2002). **Shaxs psixologiyasi**. Toshkent: O'qituvchi.

4. WHO. (2014). *World Health Organization. Health as a state of complete physical, mental and social well-being*.
5. Adler, A. (1956). *The Practice and Theory of Individual Psychology*. London: Routledge.
6. Erikson, E. (1968). *Identity: Youth and Crisis*. New York: Norton.
7. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. New Jersey: Prentice Hall.
8. Bronfenbrenner, U. (1979). *The Ecology of Human Development*. Harvard University Press.
9. Beck, A. T. (1976). *Cognitive Therapy and the Emotional Disorders*. New York: International Universities Press.
10. Beck, A. T. (1995). *Cognitive Therapy*. New York: Guilford Press.
11. Selye, H. (1974). *Stress without Distress*. New York: McGraw-Hill.
12. Goffman, E. (1963). *Stigma*. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
13. G'oziyev, E. (2002). *Shaxs psixologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi.
14. Karimova, V. (2010). *Ijtimoiy psixologiya*. Toshkent.
15. Ikmatullayev, G'. (2018). *Ijtimoiy moslashuv psixologiyasi*. Toshkent.
16. Ibragimova, X. (2020). *Shaxs adaptatsiyasi muammolari*. Toshkent.